NYC davlat maktablaridagi ixtisoslashgan autizm dasturlari



Nest	Horizon	AIMS
Batafsil ma’lumot olish uchun **Nogiron o‘quvchilar uchun NYC Davlat maktablarining ixtisoslashgan dasturlari** bilan tanishing.		
Maktabgacha ta’lim - 12 • Integratsiyalashgan hamkorlikdagi o‘qitish (ICT) sinfiga ega qisqartirilgan sinflar (Individual ta’lim dasturiga [IEP] ega va ega bo‘lmagan o‘quvchilar) • 1 ta maxsus ta’lim va 1 ta umumiy ta’lim bo‘yicha qo‘shma dars beruvchi o‘qituvchilar • Tegishli autizm ko‘mak choralari mavjud bo‘lgan sinf darajasidagi o‘quv dasturi • Ijtimoiy muloqotni qo‘llab-quvvatlash hamda tengdoshlar bilan munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan Ijtimoiy rivojlanish aralashuvi (SDI) – logoped tomonidan o‘tkaziladi va sinf o‘qituvchisi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi • Ota-onalar uchun maslahat va treninglar • O‘quvchilar yuqori sinflar maktabini 4 yilda 97% bitirish ko‘rsatkichi bilan tamomlashadi (shahar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori)	**Maktabgacha ta’lim - 12** • Maxsus sinf (faqat IEPga ega o‘quvchilar; 8 nafar o‘quvchidan iborat kichik sinf) • 1 ta maxsus ta’lim o‘qituvchisi va 1 ta • yarim professional xodim • Tegishli autizm ko‘mak choralari mavjud bo‘lgan sinf darajasidagi o‘quv dasturi • Ijtimoiy muloqotni qo‘llab-quvvatlash hamda tengdoshlar bilan munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan "Horizon" ijtimoiy o‘quv dasturi – logoped tomonidan taqdim etiladi hamda sinf o‘qituvchisi va yarim professional xodim tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi • Amaliy xulq-atvor tahlili (ABA) tamoyillariga asoslangan holda o‘quvchilar uchun ta’lim, ijtimoiy-ruhiy va xulq-atvorni qo‘llab-quvvatlash • Ota-onalar uchun maslahat va treninglar • O‘quvchilar yuqori sinflar maktabini 4 yilda 97% bitirish ko‘rsatkichi bilan tamomlashadi (shahar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori).	**Maktabgacha ta’lim - 5** • Maxsus sinf (faqat IEPga ega o‘quvchilar; 6 nafar o‘quvchidan iborat kichik sinf) • 1 ta maxsus ta’lim o‘qituvchisi, 1 ta logoped va 1 ta yarim professional xodim • Tegishli modifikatsiyalar bilan sinf darajasidagi o‘quv dasturidan foydalanish, shu jumladan yakka tartibda va kichik guruhlarda o‘qitish usullarini qo‘llash • Tilni rivojlantirish, funksional muloqot, kundalik hayotiy ko‘nikmalar, maktabgacha ta’lim hamda ijtimoiy ko‘nikmalarga asosiy e’tiborni qaratish • Sertifikatlangan xulq-atvor tahlilchisi (BCBA) rahbarligida sinf pedagoglari tomonidan amaliy xulq-atvor tahlili (ABA) asosida ta’lim berish, ijtimoiy-emotsional va xulq-atvorni qo‘llab-quvvatlash • Ota-onalar uchun maslahat va treninglar
Bolaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hamda har bir dastur tarkibiga kiritilgan ko‘mak choralari bilan mutanosib ravishda yakka tartibdagi logopedik yordam, ergoterapiya, fizioterapiya va psixologik maslahatlar tavsiya etilishi mumkin.		